

O'RTA OSIYO RESPUBLIKALARIDA O'TKAZILGAN MILLIY-HUDUDIY CHEGARALANISH

Xasanov Erkinjon Vahobovich

O'zbekiston tuman 2-son kasb-hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'rta Osiyo Respublikalarida o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish haqida hamda uning oqibatari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Turkiston, mintaqqa, mustamlakachilik, bolsheviklar, sovet hokimiyati, chorizm, ASSR, BXSr, XXSR.*

Mintaqa xalqlari yagona va bir degan g'oya avloddan-avlodga o'tib kelgan, milliy yetakchilarning ijtimoiy - siyosiy va amaliy faoliyatlarida o'z aksini topgan. Ana shunday qadimiy Turkiston ko'p yillar davomida mustamlakachiilar zulmi ostida ezildi. Mustamlakachilar o'lkani boshqarishda avvalo o'zlariga xizmat qiluvchi mukammal tizimini joriy qilishga intildilar. Bunda ular "bo'lib tashla - hukumdorlik qil" degan tamoyilga amal qildilar.

Bolsheviklar partiyasi bosh bo'lgan Sovet hoki-miyati Turkiston mustaqilligi uchun kurashgan vatanparvar kuchlar harakatini daf yetishga muvaffaq bo'lgach, endilikda bu hududda iizoqqa mo'ljallangan o'z makkorona rejalarini amalga oshirishga kirishdi. Shu maqsadni ko'zlab, u XX asrning 20— yillari boshlaridan bu zaminda mustamlakachilarga xos "orani buz, hokimlik qil" qabilidagi o'z milliy siyosatini hayotga izchil tatbiq etish yo'lini tutdi. Aslida sovetlarning milliy siyosati chorizmning ko'p zamonlar bu yurtda yuritib kelgan shovinistik, ulug' daviatchilik siyosatidan mohiyat e'tibori bilan farq qilmasdi. Faqat uning shakli-shamoyili o'zgargan edi, xolos.

Gap shundaki, chorizm hukmronligi davrida chekka o'lka xalqlari ochiq-oshkora tarzda kamsitilar, ularning insoniy qadr-qimmati, or-nomusi, milliy qadriyatlari tahqirlanar edi. Sovet mutasaddilari esa o'zlarining niqoblangan soxta ishlari, yolg'on-yashiq va'dalari bilan mazlum kabilarni o'z hukmlariga bo'ysundirishga intildilar.

Turkiston mintaqasi azaldan turkiy xalqlarning yagona maskani va umumiy vatani bo'lgan. 1918–1924-yillarda mavjud bo'lgan Turkiston ASSR, BXSr, XXSRning tub xalqlari asrlar davomida turmush tarzi va an'analari jihatidan bir-birlariga juda yaqin bo'lishgan. Turkistondagi turli davlatlarning har biri- da turkiy xalqlar: o'zbeklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, qirg'izlar, shuningdek, tojik xalqi azaldan yashaganligi tarixiy tarkib topgan hodisa edi. Turkiston mintaqasining xalqlari shu tuproqni, Turonzaminni qadimdan o'zla- rining asl Vatani deb bilganlar.

O'rta Osiyoni milliy-hududiy jihatdan alohida respublikalarga bo'lib tashlash masalasi bir necha bor Markazda, Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarida, ularning Kompartiyalari plenumlarida, shuningdek, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi organ — RKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi plenumlarida

muhokama etilib mahalliy xalqqa ta'sir va tazyiqlar o'tkazib borilgan. Markazning hukmronlik irodasini bajarishga da'vat etilgan Turkiston ishlari bo'yicha maxsus komissiya —Turkkomissiya zimmasiga o'lkada milliy-hududiy chegaralanishni o'tkazish va shu asosda bu hududda bir qator sovet respublikalarini tashkil qilish vazifasi yuklangan edi. RKP(b) Markaziy qo'mita kotibi Y.E.Rudzutak bu sohaga bosh mutasaddi etib belgilangan edi. Markaz mo'ljallayotgan milliy siyosat mazmuni, mohiyatidan xabardor bo'lgan Turkistonning ilg'or ziyolilari uzoqni ko'ra bilgan donishmand arboblari o'lka birligi, yaxlitligini, uning qardosh xalqlari jipsligini zo'r berib himoya qilishga urindilar. Biroq o'lka jilovini qo'lda mahkam tutgan bolshevik mutasaddilar ularning haqqoniy fikrlarini hisobga olmadilar. Bugina emas, yagona va mustaqil Turkiston g'oyasi uchun kurashgan vatanparvar kuchlar, milliy ziyolilar millatchilikda, turkparastlikda, islomparastlikda va sovet hokimiyatiga qarshilikda ayblandilar va qoralandilar. Milliy-hududiy chegaralanish masalasi 1924-yil 5- aprelda RKP(b) MQ Siyosiy byurosida, 11-mayda RKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi komissiyasida ko'rib chiqildi. Unda O'rta Osiyo respublikalarida milliy chegaralanish loyihasini tayyorlovchi maxsus komissiya tuzildi. Loyiha RKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosining 1924-yil 2-iyundagi yig'ilishida muhokama etilib, asosan ma'qullandi. Bundan norozi bo'lgan mahalliy aholi vakillari, xususan, Xorazm respublikasining bir guruh mas'ul xodimlari, chunonchi, XKP MQ kotibi Odinayev, ichki ishlar noziri Abdusalomov, Yoqubov, Turkiston va Buxoro vakillari: Sultonbek Xo'janov, Sanjar Asfandiyorov va boshqalar yagona Turkistonni bo'lib tashlash maqsadga muvofiq emas, deb e'tiroz bildirdilar. Ular Turkiston xalqlari birligini saqlab qolishga qaratilgan «O'rta Osiyo federatsiyasini tuzish to'g'risida» taklif kiritdilar. Shuningdek, 1924-yil 8-mayda RKP(b) Markaziy Qo'mitasiga «Xorazmda milliy masalani hal etish to'g'risida xat» kelib tushadi. Bu xatda ham Xorazm respublikasini bo'lib yuborish maqsadga muvofiq emas, deyilgan edi. Biroq mahalliy xalqlarning talab va takliflari inobatga olinmadi. Aksincha, 1924-yil 12-iyunda RKP(b) MQ Siyosiy byurosi «O'rta Osiyo respublikalarini milliy chegaralash to'g'risida»gi masalaga yana qaytib, uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi. Munozaralar tobora qizib borganligi sababli vaqtincha Xorazm respublikasida milliy-hududiy chegaralanishni to'xtatib turishga qaror qilindi. Bu borada Xorazm Kompartiyasi va hukumati rahbarlariga har tomonlama ta'sir o'tkazib borildi. Ularning ko'pchiligi vazifasidan olinadi, qolganlari partiya qaroriga qo'shilishga majbur bo'ladi. Oqibatda 1924-yil 26-iyunda Xorazm respublikasi rahbarlari Xorazm uchun ham milliy chegaralanishning zarurligini «e'tirof» etadilar. Shundan so'ng, 1924-yil 15-iyulda O'rta Osiyo byurosi milliy chegaralanish loyihasini tayyorlash va 1924-yil oktabr oyida uni o'tkazish zarur, degan qat'iy xulosaga keldi. Shu maqsadda maxsus Markaziy hududiy komissiya tuzilib, joylarda tashviqot-targ'ibot ishlari kuchaytirib yuboriladi. Komissiya 1924-yil sentabr oyi boshlarida o'z ishini asosan tugallaydi. 1924-yil 25-sentabrda RKP(b) MQ Siyosiy byurosi, 9- va 11-oktabrda RKP(b) Markaziy Qo'mitasi bu masalani ko'rib chiqib, milliy chegaralanishni rasmiylashtirishni maqsadga muvofiq deb topadi. Bu qaror 14-

oktabrda SSSR BMIQ tomonidan ham ma'qullanadi. Shu tariqa, sovet hukumati, RKP(b) MQ va uning joylardagi mahalliy tashkilotlarining 1920—1924-yillar davomida O'rta Osiyoda olib borgan, xalqqa yolg'on va'dalar berishni ko'zda tutgan «Lenincha milliy siyosat»ni hayotga tatbiq etish bobidagi amaliy ishlari yakun topdi. Buning orqasida o'lkaning tarixan tarkib topgan o'ziga xos milliy xususiyatlari, hududiy yaxlitligi zavol topdi. Uning hududlarini kichik-kichik milliy bo'laklarga bo'lish ishlari yakuniga 1924-yil 24-oktabrda RKP(b) MQ plenumi so'nggi nuqta qo'ydi. Unga ko'ra O'rta Osiyodagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari o'rnida O'zbekiston SSR (O'zSSR), va Turkmaniston SSR, shuningdek Tojikiston ASSR (O'zSSR tarkibida), Qoraqalpoq va Qoraqirg'iz (aslida qirg'iz) avtonom viloyatlari tuzilishi kerak edi. Nihoyat, 1924-yilning 27-oktabrida bo'lib o'tgan SSSR BMIQ II sessiyasida Turkiston ASSR MIK favqulodda sessiyasi, Butunbuxoro va Butunxorazm xalq vakillarining V qurultoylari asosida O'rta Osiyo hududida milliy respublikalar tuzish to'g'risida maxsus qaror qabul qilindi. Sessiyada BSSR Nozirlar Sho'rosining raisi Fayzulla Xo'jayev O'rta Osiyoda milliy hududiy chegaralanishning o'tkazilishi to'g'risida nutq so'zladi. Shunday qilib 1924-yil sentabr-oktabr oylarida O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanishi O'rta Osiyo respublikalari, RSFSR va SSSRning oliy organlari tomonidan qonuniy kuchga kirdi va O'rta Osiyo hududidagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari o'rnida oltita milliy davlat birlashmalari tashkil etildi. Ular :

- O'zbekiston SSR; -Turkmaniston SSR;
- O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR (1929-yilgacha);
- RSFSR tarkibida Qoraqirg'iz (Qirg'iziston) muxtor viloyati;
- RSFSR tarkibida Qozog'iston ASSR;
- Qozog'iston ASSR tarkibida Qoraqalpoq muxtori viloyati. Keyinchalik

Qoraqalpog'iston ASSR, 1936- yildan O'zSSR tarkibiga kirgan.

O'rta Osiyo respublikalarida milliy-hududiy chegaralanish shu tarzda o'z nihoyasiga yetdi. Natijada, yagona Turkiston xalqlari bir-biridan sun'iy ravishda uzoqlashtirildi. Bu hol sovetlarga o'lkada o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi.

Xalqlarni milliy chegaralash g'oyalarini amalga oshirish bolsheviklarning taktik ustamonligi bilan muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarildi, Avvalo, bu g'oyaning dastlabki vazifasi hal etildi - turkiylar birligi raafkurasiga va amaliyotiga sezilarli zarba berildi. Milliy tuzilmalar tashkil etilishi, ularga «milliy davlatchilik» maqomi berilishi bilan Markaz mintaqa xalqlarining diqqatini tashqi dushmanidan (ular uchun tashqi dushman Markazning o'zi edi) ichki muammolarga yo'naltirishga muvaffaq bo'ldi.

Lekin bu eng asosiysi bo'lib, bolsheviklar bu harakat bilan o'zlarining strategik niyatlarida ham muhim yutuqlarni qo'lga kiritdilar. RSFSRning Turkiston Avtonom Respublikasi bilan bir qatorda milliy-hududiy chegaralanishiga huquqiy jihatdan mustaqil Buxoro va Xorazra respublikalarining ham jalb qilinishi, ularning qismlarga bo'linishi va uyar asosida yangi milliy tuzilmalarning tashkil topishi, ularning SSSR

tarkibiga kiritilishi natijasida O'rta Osiyoning bu ikki qadimgi davlati dunyoning siyosiy xaritasidan butunlay yo'q qilindi.

Shu narsani alohida aytib o'tish lozimki, milliy-hududiy chegaralanish jarayonida ko'plab siyosiy xatolarga yo'l qo'yildi. Xususan, o'zbek xalqining manfaatlariga jiddiy zarar yetkazildi. Azaldan o'zbeklar yashab kelayotgan hududlarning katta qismi Markaz buyrug'i bilan qo'shni ittifoqdosh va avtonom respublikalar hamda viloyatlarga berildi.

Xulosa qilib aytganda, milliy chegaralanish oqibatda O'rta Osiyo hududida azaldan yashab kelayotgan xalqlarining xo'jalik hayoti, turmush tarzi va milliy an'analariga jiddiy putur yetkazildi va tashkil etilgan yangi milliy davlatchilik ularning bundan keyingi taraqqiyotiga yangi nozik farqlarni olib kirdi. Asrlar davomida manfaatlar bitta bo'lib birga yashagan o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman xalqlarning rus sovet tizimi tomonidan qo'shtirnoq ichidagi mustaqil davlatlarga bo'lib yuborilishi, ularni necha yillar davomida bir - biriga aloqasi bo'lmagan xalqlar singari yashashga majbur qildi. Aslida esa bu xalqlarining manfaati qadimdan ham hozirda ham bitta yagona bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekistonning yangi tarixi, 2-kitob [O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida], T. 2000;
2. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova, O'zbekiston tarixi, T.2010;
3. G'. Shokir, Y. Dilorom. O'zbek davlatchiligi tarixi, Samarqand 2021;
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. T.: Sharq, 2010.
5. Tursunov X. O'zbekiston SSRning tashkil topishi. T.: Fan, 1957.
6. O'zbekistonning yangi tarixi: O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinchi kitob. T.:Sharq, 2000.